




ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

journal homepage:
<https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl>



CONFLICTING PROCESSES IN THE CULTURAL LIFE OF UZBEKISTAN IN THE 20S OF THE 20TH CENTURY

Zohidjon Rasulovich Isomiddinov

Director

2nd IDUM

Baghdad district, Ferghana region

Ferghana, Uzbekistan

E-mail: isomiddinovzohidjon221@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: Bolsheviks, culture, value, material support, local personnel, repression, persecution.

Received: 29.07.24

Accepted: 31.07.24

Published: 02.08.24

Abstract: This article analyzes the struggle against the ancient traditions and values of the local peoples and the attempt to destroy the country's rich cultural heritage with the establishment of Bolshevik power in Turkestan. Also, sending young people to developed countries such as Germany in the issue of local personnel training, their lives and fates abroad were also briefly touched upon.

XX ASRNING 20-YILLARIDA O'ZBEKİSTONDAGI MADANIY HAYOTDAGI ZİDDİYATLI JARAYONLAR

Zohidjon Rasulovich Isomiddinov

Director

2-IDUM

Farg'onan viloyati Bag'dod tumani

Farg'onan, O'zbekiston

E-mail: isomiddinovzohidjon221@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: bolsheviklar, madaniyat, qadriyat, moddiy yordam, mahalliy kadrlar, qatag'on, ta'qib.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Turkistonda bolsheviklar hokimiyatining o'rnatilishi bilan mahalliy xalqlarning qadimiy an'analari va qadriyatlariga qarshi kurashishi, o'lkaning boy madaniy merosini yo'q qilishga urunishi tahlil qilingan. Shuningdek, mahalliy kadrlar tayorlash masalasida yoshlarni Germaniya kabi rivojlangan mamlakatlarga yuborish, ularning chet ellardagi hayoti va taqdirlariga ham qisqacha to'xtalib o'tilgan.

КОНФЛИКТНЫЕ ПРОЦЕССЫ В КУЛЬТУРНОЙ ЖИЗНИ УЗБЕКИСТАНА В 20-Е ГОДЫ XX ВЕКА

Зохиджон Расулович Исомиддинов

Директор

2-го ИДУМ

Багдадский район Ферганской области

Фергана, Узбекистан

E-mail: isomiddinovzohidjon221@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: большевики, культура, ценности, материальное обеспечение, местные кадры, репрессии, гонения.

Аннотация: В данной статье анализируется борьба с древними традициями и ценностями местных народов и попытка уничтожить богатое культурное наследие страны с установлением большевистской власти в Туркестане. Также кратко были затронуты вопросы отправки молодых людей в развитые страны, такие как Германия, в вопросе подготовки местных кадров, их жизни и судьбы за рубежом.

KIRISH

Ma'lumki, 1917 yil oktyabr voqealaridan keyin hokimiyatga bolsheviklarning kelishi nafaqat, Rossiya balki, unga qaram o'lkalarning hayotida ham katta o'zgarishlarga olib keldi. Mintaqada ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy sohalardagi keskin burulishlar singari, madaniy hayotda ham ziddiyatli, bir-biriga qarama-qarshi jarayonlarni boshlanishiga sabab bo'ldi. Sho'rolar hokimiyati dastlabki davrida avvalgi davr madaniyatidan farqli "yangi madaniyat" yaratishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi va shu asosda "Proletar madaniyati" nazariyasi ishlab chiqildi[1].

ASOSIY QISM

XX asrning yigirmanchi yillarida esa sho'rolar hokimiyati o'lkani o'zining yangi tizimiga moslashtirish yo'lida har qanday imkoniyatlarini ishga soldi. O'z maqsadlariga yo'lida qurolli kuchlarni ishlatish bilan birga ziylolilarni va yirik diniy ulamolarni quvg'in hamda qatag'on qilishdek ishlardan ham amalga oshirdi. Bolsheviklar oldingi mustamlakachilik boshqaruvning tajribasini hisobga olgan holda, birinchi navbatda O'zbekistonda shovinistik mafkurani joriy etish maqsadida qulay zamin tayyorlashga astoydil kirishdi. Bu borada tub millatli xalqlarning milliy o'zligini, milliy-madaniy qadriyatlariga sodiqligini va unga rioya qilinishini taqozo etuvchi, belgilovchi omillarni zaiflashtirishga harakat qilinishi ayon edi.

Shunday omillar orasida eng muhimi mahalliy aholining madaniy-ma'naviy merosi hisoblanib, u tarixan tadrijiy rivojlanib, millatning o'ziga xos xususiyatlari, fazilatlari sifatida shakllangan va takomillashib avloddan-avlodga o'tib kelgan. Bu ob'ektiv qonuniyat bo'lgani bilan o'lkadagi va uning atrofidagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat xalqlarning, ayniqsa, turli hayotiy

sinovlarni hali boshidan kechirmagan yosh avlodlarning ma’naviy mavqeiga ijobiy yoki salbiy ta’siri ham oqibatsiz bo‘lmagan. Bu ma’noda, masalan, Rossiya imperiyasi davridagi mustamlakachilik siyosati, xususan, maorif sohasidagi ruslashtirish, o‘quvchilarni oilasidagi tarbiyadan, diniy e’tiqodlari, milliy tuyg‘ularidan uzoqlashtirish, rus madaniyatini mahalliy aholi orasida keng targ‘ib qilish, joriy etishga milliy ziyolilarining ayrim vakillarini ham jalb qilish albatta mazkur qonuniyatni sezilarli bo‘sashtirishga olib kelgan.

O‘lkada butun hokimiyatni qo‘lg olgan bolsheviklar partiyasining Markaziy organlari Turkiston ASSR va unga qo‘shti davlatlarda tub xalqlarning ma’naviyatini, faqat dunyoviy bilimlarni o‘qitish, yangi, proletar “ma’naviyatini” singdirib, sotsialistik mafkurani joriy etish yo‘li bilan yo‘qqa chiqarmoqchi bo‘lgan. Bu borada bolsheviklar rahbariyati, eng avvalo, milliy madaniyatning barcha yo‘nalishini yangi mafkuraning tamoyillariga moslashtirish uchun isloh qilishga kirishdi. Islom dini va milliy qadriyatlar, an’analarning mahalliy aholiga ta’sirini bartaraf etish hamda ruslashtirish siyosatiga kengroq yo‘l ochish maqsadida eski diniy maktablarni vaqtincha saqlash, tashkil qilinayotgan sovet maktablarini ko‘paytirish amaliyoti avj oldirildi. Bu jarayon avvalgi an’anaviy va takomillashgan madrasalarni ham qamrab olgan edi.

Sovet hokimiyati o‘rnatilib, mustahkamlanayotgan birinchi yillardayoq Markazning hukmon doiralari shuni yaxshi bilardiki, Turkistonning eng rivojlangan qismi – bu asosan o‘zbeklar yashaydigan markaziy qismi, o‘lkaning boshqa mintaqalariga qaraganda bu erda milliy o‘quv yurtlar ko‘proq ekanligini hamda eng yirik madrasalar shu yurtning shaharlarida joylashgan edi. Dastlabki yangi usul (jadid) maktablari ayni O‘zbekiston hududida tashkil etilgan va bir qancha madrasalar diniy fanlardan tashqari dunyoviy fanlarni ham o‘qitishar edi. Bu xususiyatlarni qayd etishdan maqsad shuki, jadid maktablari hamda takomillashgan madrasarlarda o‘lkaning ilg‘or fikrli, vatanparvar, millatparvar ziyolilarining aksariyati o‘qituvchilik, mudarrislik qilganini ham yangi hokimiyat rahbarlari yaxshi anglagan.

Mahalliy xalqlarning ma’naviy qat’iyatlilagini bo‘sashtirish, ularning milliy g‘ururini imkon qadar, butunlay yo‘q qilish uchun birinchi navbatda milliy ziyolilar orasida jiddiy siyosiy va ijtimoiy ziddiyatlarni vujudga keltirish, mahalliy xalqlar orasida bolshevistik g‘oyalarni singdirish kerak edi. Shu maqsadda XX asrning 20-yillarida o‘tkazilgan er-suv islohoti borasida qishloq xo‘jalik erlari, vaqf mulkclarini musodara qilish, qulqolashtirish siyosati, milliy matbuotni yopish, milliy jamoa va siyosiy tashkilotlar faoliyatini g‘ayriqonuniy deb e’lon qilish yo‘llari bilan birga ko‘pgina ziyolilarga islomparast, turkparast, millatchi va shu kabi tamg‘alarni yopishtirish amaliyoti ham qo‘pol tarzda qo‘llanilgan.

Shuni alohida qayd etish kerakki, O‘zbekiston milliy ziyolilariga bolsheviklar partiyasi va sovet hokimiyatining ishonchsizlik munosabati uzoq vaqt namoyon bo‘lib turdi. Buni garchand “bosmachilik” deb nomlangan istiqlolchilik harakati rasman 1922 yilda bostirilgan deb e’lon

qilingan bo‘lsa-da, O‘zbekiston communistlar partiyasining 1925-1926 yillarda bo‘lib o‘tgan s’ezd, plenumlarida “bosmachilik” harakati yoxud uning “qoldiqlari” ga qarshi kurash zarurligi uqtirilgan. Va bu vazifani amalga oshirishda milliy ziyolilar, madaniyat, ta’lim, partiya, sovet xodimlari, ijodkorlar faol qatnashishlari kerakligi alohida ta’kidlangan[2].

O‘lka milliy ziyolilarini, madaniyat, ta’limning yirik vakillarini siyosiy sinovlardan o‘tkazish yo‘li bilan yangi hokimiyatga xayrihohlarni yoxud qarshi mavqega ega bo‘lmaganlarni ma’muriy va ijtimoiy rag‘batlantirish, ularning ijodini, faoliyatini bolshevistik, sinfiy mafkuraning talablariga bo‘ysundirish hamda qo‘llab-quvvatlash amaliyoti XX asrning 20-yillarning boshlaridayoq shakllanib ulgurgan edi. Bu oraqali bolsheviklar mahalliy aholining ma’naviy qat’iyatini zaiflashtirish va o‘zgartirish mumkinligiga jiddiy ishongan edi.

Sho‘rolarning Turkiston o‘lkasi xalqlari ustidan yurgizayotgan mazmunan chorizm davridagidek, shaklan, yangi mustamlakachilik siyosatining zulmi, tazyiqi tobora oshib, yanada mustahkamlanib borayotgan XX asrning 20-yillari darhaqiqat o‘lka madaniy hayotiga ham jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsata boshlagan. Lekin ana shunday tahlikali jarayonlarga qaramay milliy ziyolilar, sho‘rolar hukumati tomonidan zo‘ravonlik bilan ag‘darilgan Buxoro va Xiva xonliklari o‘rnida o‘rnatilgan xalq sovet sotsialistik jumhuriyati rahbariyatining ayrim fidoiy, xalq farzandlari tashabbusi bilan mahalliy aholi ongini, tafakkurini, bilimini oshirish maqsadida ijobiy harakatlar to‘xtamagan edi.

Ana shu maqsadda 1921-1923 yillarda mintaqaga rahbariyati tashabbusi bilan mahalliy kadrlardan turli sohalarda mutaxassislar etishtirish uchun Turkiston, Xiva va Buxoro hududlarida yashovchi turli millatlardan iborat yoshlarni Germaniyaga o‘qishga yuborgan edi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad avvalo, milliy kadrlarni shakllantirish bo‘lsa, ikkinchidan, iqtisodiy va madaniy saviyani yanada rivojlantirishdan iborat edi. Bu harakatni amalga oshirishda jadid ma’rifatparvarlari alohida tashabbus ko‘rsatib, yuqoridaqilarga qo‘sishma ravishda mahalliy yurt farzandlarini Yevropada ilm olib qaytishiga, xalqlarning madaniyatini o‘rganib, o‘zaro aloqlarni mustahkamlashga va bu orqali o‘lka xalqlarini madaniy dunyoqarashini yanada shakllantirishga munosib xissa qo‘shti.

Arxiv manabalarida ta’kidlanishicha, 1921 yil 23 aprelda Toshkentda o‘tkazilgan O‘zbek ilmiy komissiyasi majlisida o‘zbeklardan xorijga talabalar yuborish masalasi muqokama qilingan. Va unda komissiya a’zosi A.Yunusov ma’ruza qilib, mahalliy yoshlarni xorijiy oliygohlardan o‘qitish muhimligini ta’kidlagan[3]. Shundan so‘ng o‘lkani turli hududlarida yig‘ilishlarda mahalliy yoshlarni chet ellarga o‘qishga yuborish masalasi bir necha bor muhokama qilingan.

O‘zbekiston Milliy arxivi fondlarida saqlanayotgan hujjatlarga ko‘ra 1921-1923 yillarda Germaniyaga Turkiston ASSR, Buxoro xalq sovet respublikasi va Xorazm xalq sovet respublikalaridan bir necha talaba yigit va qizlar o‘qishga yuborilgan[4].

Bu voqealardan so‘ng mahalliy rahbarlarning asosiy vazifalaridan biri ham mahalliy xalq farzandlarini xorijiy mamlakatlarga o‘qishga yuborish orqali yanaqda ilmli qilish va bu orqali milliy kadrlar salmog‘ini oshirish, o‘lka xalqlarining madaniy saviyasini ko‘tarishga aylanib qoldi. Milliy taraqqiyot orzusi bilan yashagan Fayzulla Xo‘jaev, Turor Risqulov, Abdulla Rahimboev kabi rahbarlari aynan shundaylar sarasiga kirib, ular Turkiston, Buxoro va Xorazmni iqtisodiy-siyosiy va madaniy jihatdan yana ham yuksaltirish hamda mintaqani ilg‘or mamlakatga aylantirishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘ydilar.

Mahalliy rahbarlarning nazorati ostida turli tashkilotlar va sho‘balar mazkur harakatlarning tashabbuskori bo‘lib maydonga chiqdilar. Masalan, Turkiston Maorif komissarlining 1921 yil 7 maydagi yig‘ilishida mahalliy millat farzandlaridan tashkil topgan 25 nafar kishini xorijga yuborish masalasi ma’qullangan[5]. Ularni moddiy jihatdan ta’minlab turish uchun turli jamiyatlar, uyushmalar ham o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shtigan. Masalan, 1921 yili Toshkentda tashkil etilgan “Ko‘mak” uyushmasi a’zolarining o‘qigan ma’ruzalari, milliy san’at ustalari tomonidan ko‘rsatilgan spektakllardan tushgan daromadning 80 foizini, uloq poygasidan tushgan daromadning esa 20 foizini ularga yuborgan[6].

Mazkur vaqtida mahalliy yoshlarni xorijga o‘qishga yuborish ayniqsa, Germaniyaga jo‘natish masalasi Buxoroda butun davlat miqyosidagi masalaga aylangan edi. Bu harakatga Buxoro Xalq Sovet Respublikasi raisi Fayzulla Xo‘jaev va maorif noziri Fitrat boshchilik qildi. Ular 1921—1923 yillarda mahalliy kadrlardan turli sohalarda mutaxassislar yetishtirmoq uchun Turkiston va Buxoro hududida yashovchi o‘zbek, turkman, yahudiy bolalaridan iborat bir guruhni Germaniyaga o‘qishga yuborgan[7].

BXSR raisi talabalarni Germaniyaga olib borish va o‘qishga joylashtirishni buxorolik ziyolilardan Abduvohid Burqonov hamda Germaniyadan Buxoroga kelgan tatar ziyolilaridan Olimjon Idrisiy, A.F.Kemeniskiylardan iborat maxsus komissiyaga topshirirgan hamda ularning huquq va vazifalarini tushuntirib bergen. Buxoro madrasalarini bitirgan, so‘ng Germaniya va Turkiyada bo‘lib qaytgan Olimjon Idrisiy Germaniyadagi buxorolik va turkistonlik talabalarining ma’rifiy va madaniy ishlar bo‘yicha rahbari etib tayinlangan.

Buning natijasida birgina 1922 yilning o‘rtalarida Buxorodan Germaniyaning turli shaharlaridagi oliy va o‘rta maxsus bilim yurtlariga turli sohalar bo‘yicha bir qancha yoshlar o‘qishga yuborilib, ularga stependiyalar joriy qilingan. Mazkur o‘zgarishlarni mahalliy gazetalar keng yoritib, talabalarni taqdiri va o‘qishlari haqida o‘z mushtariylariga muntazam xabarlar berib borgan. Masalan, “Buxoro axbori” gazetasida “1922 yil 13 avgustda Germaniyaga Buxorodan talabalar olib borish uchun tuzilgan davlat komissiyasi a’zolari (Olim Idrisov, Abduvohid Burhonov, Fyodor Aleksandrovich Kemnis) yoshlarni u erga olib borib, yotoqxona va nemis oilalariga joylashtirdilar. Buxorolik o‘quvchilar (1-guruh -39 kishi 27 sentyabrda, 2-guruh-4 kishi

5 oktyabrda, 3-guruh 3 kishi 14 oktyabrda) Germaniyaga 1922 yil sentyabr-oktyabr oylarida etib keldilar”-degan ma'lumotni bergen[8].

1922 yilning oxirlarida davolanish va yuborilgan yoshlar holidan xabar olish maqsadida Fayzulla Xo'jaev ham Germaniyaga tashrif buyuradi va mamlakatning shu davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy vaziyati bilan yaqindan tanishadi.

Yuborilgan talabalarning eng katta muammolardan biri bu til bilish masalasi bo'lib, ular jo'nab ketayotganlarida nemis tilini bilmagan. Shu bois ular imkon qadar tezroq mazkur tilni o'zlashtirib yurt taraqqiyot sirlarini o'rganishga astoydil bel bog'lagan edi. Va shu maqsadda ularning ayrimlari Berlin shahridagi ba'zi ustozlarning uylarida yashab, o'qishdan tashqari kamida ikki soat alohida universitet o'qituvchisidan nemis tili kursidan soboqlar olgan. Bazi talabalar boshqa sohalarda faoliyat olib borayotgan nemis oilalarida istiqomat qilib, tezroq mazkur tilni o'rganishga intilgan. Nemis oilasida yashab o'qiganliklari talabalarga o'ziga xos qulaylik yaratib, tilni amalda qo'llash imkonini bergen. Bu usul o'z navbatida yoshlarni boshqa tilni o'rganib o'zlashtirishiga yaqindan yordam bergen.

Ba'zi talabalar Berlin shahridan uch soatlik masofadagi Drezdin, ba'zilari Xermdorf shahrlaridagi talabalar yotoqxonalarida turib tehsil olgan.

Yuborilgan talabalarga Germaniyada barcha sharoitlar yaratib berilgan bo'lib, ular kalsal bo'lib qolgudek bo'lsa, huddi o'zlarining fuarolari singari mamlakatdagi shifoxonalarda davolanish huquqiga ham ega bo'lgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, o'qishga jo'natilgan talabalarning Germaniyada o'qishlari, yashashlari, kiyim-kechak, oziq-ovqatlari uchun BXSR hukumati Berlin bankiga o'qish muddatlari tugagunga qadar etadigan mablag'larni o'tkazib bergen.

1924-1925 yillarda markaz tashabbusi bilan O'rta Osiyoda o'tkazilgan milliy-davlat chegaralanishi tufayli Buxoro, Xorazm, Turkiston avtonom Jumhurriyatları birlashtirilib, O'zbekiston SSR tashkil etilgandan so'ng, Moskva vakillari Germaniyaga talabalar uchun o'tkazilgan mablag'larni 1924-yildan keyingi qolgan qismini talab qilib qaytarib olgan. Natijada talabalarning barchasi moddiy ta'minotdan mahrum bo'lib, ancha qiyinchiliklarni boshidan kechirdi. Ketgan talabalarning ko'pchiligi bunday sharoitda mamlakatning ishchi kuchiga aylanib mamlakatning turli shaharlarida yashab qolishga majbur bo'lgan. Yurtga qaytganlari esa sovet hukumati ta'qibida qolgan.

Shuni ta'kidlash joizki, bolsheviklar har qancha urinmasin mintaqada o'z madaniyatlarini targ'iboti unchalik samara bermagan. Chunki, bu erdag'i mahalliy aholi orasida rus tilini bilish masalasi juda past edi va 1-2 foizni tashkil etgan evropalik aholi o'rtasida targibot olib borish esa etarli natijalarni keltirmagan[9].

Shuningdek, bu davrda O'zbekiston xalqlari madaniyatining muhim tarkibiy qismi bo'lgan milliy san'at rivoji ham XX asrning yigirmanchi yillarining dastlabki bosqichida sho'rolar tomonidan turli uslublar bilan tadbiq etilgan va tobora o'zgartirib borilgan.

Shu o'rinda drama teatri, musiqa va komediya teatri, folklor asarlari teatri, opera teatrining tashkil etilishi professional san'at sohasiga ijobjiy o'zgarishlarga olib kelgan. Shu bilan birga mintaqada bir vaqtning o'zida an'anaviy bo'lgan dorbozlik, askiya, masxarabozlik, qo'g'irchoq o'yini tomoshalari va boshqa ommaviy san'at turlari ham saqlanib qolingan.

Professional teatrning barpo etilishi 1919 yilda Turkiston fronti siyosiy boshqarmasining targ'ibot-tashviqot maqsadlari bilan bog'liq bo'lgan. Masalan, Toshkentda Mannon Uyg'ur tashkil qilgan o'zbek ashulachilar, raqqoslari, musiqachilar havaskor guruhi va Farg'ona shahrida Hamza Hakimzoda Niyoziy tashabbusi bilan tuzilgan dramatik havaskor artistlar guruhi siyosiy boshqarmaning tashviqot qiluvchi temir yo'l poezdi (agitpoezd)da Toshkentdan Aktyubinsk frontigacha Qizil Armiya askarlariga turli konsert dasturlarini namoyish etib borgan. 1920 yilga kelib, bu guruhlar mazkur vazifadan ozod etilib, uning tashkilotchilari Toshkentda O'zbek davlat drama teatrini tashkil etgan. Shuningdek, teatr va musiqa san'ati asosan havaskorlarning iste'dodi va jonbozligi hisobiga rivojlanib borgan.

XX asrning yigirmanchi yillarning oxirilariga boribgina teatr san'ti uchun mutaxassis kadrlarni tayyorlashga mo'ljallangan o'quv yurtlari asta-sekin ochila boshlangan. 1924 yilda Moskvada O'zbek maorif instituti qoshida dramatik studiya tashkil etilib, unda birinchilardan bo'lib Mannon Uyg'ur, Yetim Bobojonov, Abror Hidoyatov, Sora Eshonto'raeva, Sa'dixon Tabibullaev, Zamira Hidoyatovalar tahsil olgan.

Yosh san'atkorlarning boshqa bir qismi (H.Nosirova, X.Xo'jaeva va boshqalar) 1925 yilda malaka oshirish uchun Bokuga yuborilib, 1927 yilda O'zbekistonga qaytib kelganlar va o'zlarining aktiyorlik san'atini samarali davom etirgan[10].

1918-1927 yillarda ma'rifatparvarlar tomonidan tashkil etilgan teatr truppalarining asta-sekin malakalari oshib borib, havaskorlikdan davlat teatrlariga aylanishi jarayonlari kuchaygan. Bu davrda o'zbek teatri o'z yo'li, estetik tamoyillari va an'analarini belgilab olishga ulgurgan edi. Bu jarayonda Hamza, Fitrat, G'ulom Zafariy, G'ozi Yunus, Cho'lpion, Mirmulla Shermuhammadlarning tanqidchilik faoliyati muhim ahamiyat kasb etgan[11]. O'sha davr teatr san'atini mavzu jihatidan hozir javobligi, shakl jihatidan sodda va tomoshabopligrini, aniq g'oyaviy maqsadga xizmat qilganligini ajralib turgan. Ularning mazkur vaqtdagi faoliyatlarini davr talabi bilan vujudga kelgan aniq maishiy yo'nalishni rivojlangan targ'ibot va tashviqot teatri deb belgilash maqsadga muvofiq.

Biroq, Ittifoq va O'zbekiston siyosiy rahbariyati sotsialistik mafkurani adabiyot va san'at sohalarida esa birinchi navbatda sotsialistik realizm tamoyilini joriy etishga shunchalik kirishgan

edilarki, teatr sahnalarida qo‘yilayotgan spektakllarning aksariyatini rus tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan asarlar edi. Ular qatoriga Gogolning “Revizor”, Gossining “Malikai Turandod”, Furmanovning “Bronepoezd №14-69”, Slavinning “Is’yon”, V.Ivanovning “Interversiya” kabi asarlarini keltirish mumkin. 1926 yilda teatr san’atini va o‘zbek sovet adabiyotini rivojlantirishdagi xizmatlari uchun Hamza Hakimzoda Niyoziyga xalq yozuvchisi va M.So‘fiyzodaga esa xalq shoiri faxriy unvonlari berilgan.

Samarqand, Buxoro, Qo‘qon, Namangan, Andijon, Farg‘onada o‘zbek dramatik teatrлари ochildi. Toshkentda Muhiddin Qori Yoqubov rahbarligida etnografik-konsert ansambl tashkil etilib, uning tarkibiga 18 nafar hofizlar, raqqoslar va 1 nafar raqqosa-laparchi Tamaraxonim, baxshi, sozandalar kirgan. Ularning orasida Yusufjon qiziq Shakarjonov, Usta Olim Komilov, Ahmadjon Umurzoqov, Abduqodir Ismoilov, Mulla To‘ychi Toshmuhammedov singari mohir ijrochilar bor edi. 1927 yilda san’atkorlardan Mulla To‘ychi Toshmuhammedov birinchi bo‘lib Mehnat Qahramoni va xalq hofizi unvonlariga sazovor bo‘lgan. 1929 yilda mazkur ansambil O‘zbek davlat teatriga aylantirilgan va Halim Ibodov ikki yil ilgari Samarqandda uyuştirgan davlat namunali san’at guruhi O‘zbek Davlat drama teatriga aylantirilgan hamda o‘scha yili Toshkent shahriga ko‘chirilgan.

1920 yillarda O‘zbekiston kinosi san’atida mutassasis kadrlarning deyarli yo‘qligi tufayli o‘zgarishlar nihoyatda kam edi. Faqatgina 20 yillar boshlarida o‘zbek milliy kino san’atiga tamal toshi qo‘ygan birinchi o‘zbek kinooperatori Xudoyberdi Devonov o‘zining ilk xujjalixronikali filmlarini yaratib, unda o‘zbek xalqining hayotini, urf-odatlarini, Xorazm manzaralarini aks ettirishga intilgan. 1924 yilda rus-buxoro shirkati “Buxkino”, 1925 yil Toshkentda “Sharq yulduzi” (1936 yildan O‘zbekfilm) kinofabrikasining tashkil bo‘lishi o‘zbek kino san’ati faoliyatini boshlab bergen.

XULOSA

Xulosa qilib shuni ta’kidlash joizki, XX asrning yigirmanchi yillari O‘zbekiston xalqlari madaniy hayotidagi o‘zgarishlar 1918 yildan o‘lkada siyosiy hokimiyatni zo‘ravonlik asosida o‘ziga bo‘ysundirgan bolsheviklar hukumatining bevosita ta’siri va tazyiqi asosida ro‘y bergen. Barcha jabhalar qatori madaniyatning hamma yo‘nalishlari mahalliy aholiga, uning manfaatlariga mos keladigan g‘oyalar emas, balki sovetlar mafkurasigan asoslangan holda turli usullar bilan olib borilgan. Har qanday og‘ir sharoitlarga qaramay mahalliy ziyorolar, aksariyat jadidchilik namoyandalari maorif, ta’lim, adabiyot, san’at va boshqa ijod sohalarida o‘ziga xos jasorat bilan qilgan harakatlari bir oz bo‘lsada ijobiy natijalar bera boshlagan. Shu bilan birga, ayni vaqtida, yurtimizdagi barcha imkoniyatlarning xo‘jayini bo‘lib olgan va markazdan “oqilona” yo‘l-yo‘riq olib turgan Sho‘rolar hukumati qonun-qoidalari bilan hisoblashib bormay iloji yo‘q edi.

Ular qanday bo‘lmasisin O‘zbekistonda davom etib kelayotgan o‘zlarining tarixiy vorisliklari tufayli madaniyat, adabiyot va san’atning barcha turi sohalarida, ijobil xalq an’analarini, milliylikni, urf odatlarni, yuksak fazilatlarini o‘z ijodlarida, amaliy xatti-harakatlarida ifodalashga intilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Н.Мустафоева. XX асрда Ўзбекистонда маданият ва тафаккур. Тарихшунослик таҳлили. –Тошкент, “Наврӯз”, 2014. 133-б.
2. Коммунистическая партия Узбекистана в резолюциях и решениях съездов и пленумов ЦК. Т.1. 1925-1937. Т.; Узбекистан, 1987. –С.10-273.
3. O‘zbekiston Milliy arxivi, 34-fond, 1-ro‘yxat, 733-ish, 329-varaq.
4. O‘zbekiston Milliy arxivi, 56-fond, 1-ro‘yxat, 224-ish, 103-105-varaqlar.
5. O‘zbekiston Milliy arxivi, 75-fond, 1-ro‘yxat, 673-ish, 88-varaq.
6. Ш.Турдиев. Улар Германияда ўқиган эдилар. Тошкент, “Академ-Хизмат” нашриёти -2006, 12-бет.
7. Б.В.Ҳасанов ва бошқ. Тарихнинг номаълум саҳифалари. Хужжат ва материаллар. 1-китоб, Тошкент-2009. Faфур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 77-бет.
8. “Buxoro axbori”, 1922 yil, 19 noyabr soni.
9. O‘zbekiston Miliy arxivi, 34-fond, 1-ro‘yxat, 1076-ish, 50-varaq.
10. Кары-Ниязов Т.Н. Историй культуры Советского Узбекистана, – Москва, 1955. – С. 374.
11. Қодиров М. XX аср ўзбек театри тарихини даврлаштириш ва қайта ўрганиш муаммоси // Истиқлол ва миллий театр.-Т., 2002. -Б.68.